



TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI BARQARORLIGINI MUSTAHKAMLASHNI REYTING TIZIMI ASOSIDA BAHOLASH USULLARI

Xolov Nabijon

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-1056-0928

nabijonholov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyati barqarorligini mustahkamlashda reyting tizimi asosida baholashning nazariy va amaliy asoslari keng yoritilgan. Bank nazoratining xalqaro tajribalari, reyting baholash usullari hamda CAMELS tizimi asosida baholash yondashuvlari tahlil qilinadi. Reyting tizimlarida foydalanilayotgan baholash mezonlari, shkalalar va metodik yondashuvlar, xususan raqamli va alifbo asosidagi reyting ifodalari batafsil ko'rib chiqiladi. Shuningdek, kompleks va ekspert baholash uslublarining afzalliklari, cheklovlari, ulardan foydalanish shart-sharoitlari hamda baholash modelining mezon tanlashdagi muhim jihatlari asoslanadi. Maqolada reyting tizimining samaradorligini oshirish uchun sifatli axborotlarni to'plash, matematik-statistik modellarni qo'llash va baholash parametrlarini to'g'ri tanlash zarurligi ta'kidlanadi. Banklarning moliyaviy holatini obyektiv baholash orqali ularning ishonchliligi va barqarorligini oshirishda reyting tizimi muhim vosita sifatida e'tirof etiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, reyting tizimi, bank nazorati, CAMELS tizimi, moliyaviy barqarorlik, ekspert baholash, kompleks tahlil, bank faoliyatini baholash, raqamli va alifbo reytingi, baholash mezonlari.

МЕТОДЫ ОЦЕНКИ УСТОЙЧИВОСТИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ НА ОСНОВЕ РЕЙТИНГОВОЙ СИСТЕМЫ

Холов Набижон

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В данной статье подробно освещены теоретические и практические основы оценки на основе рейтинговой системы в укреплении устойчивости деятельности коммерческих банков. Анализируется международный опыт банковского надзора, методы рейтинговой оценки, а также подходы к оценке на основе системы Camels. Подробно рассматриваются критерии оценки, шкалы и методологические подходы, используемые в рейтинговых системах, в частности числовые и алфавитные рейтинговые выражения. Также обосновываются преимущества, ограничения, условия использования комплексных и экспертных методов оценки, а также существенные аспекты модели оценки при выборе критерия. В статье подчеркивается необходимость сбора качественной информации, применения математико-статистических моделей и правильного выбора параметров оценки для повышения эффективности рейтинговой системы. Рейтинговая система признается важным инструментом в повышении надежности и устойчивости банков за счет объективной оценки их финансового состояния.

Ключевые слова: коммерческие банки, рейтинговая система, банковский надзор, система CAMELS, финансовая устойчивость, экспертная оценка, комплексный анализ, оценка банковской деятельности, цифровой и алфавитный рейтинг, критерии оценки.

METHODS FOR ASSESSING THE SUSTAINABILITY OF COMMERCIAL BANKS BASED ON THE RATING SYSTEM

Kholov Nabijon

Tashkent State University of Economics

Abstract. *This article highlights in detail the theoretical and practical foundations of assessment based on the rating system in strengthening the sustainability of commercial banks. The article analyzes the international experience of banking supervision, methods of rating assessment, as well as approaches to assessment based on the Camels system. The evaluation criteria, scales and methodological approaches used in rating systems, in particular numerical and alphabetical rating expressions, are considered in detail. The advantages, limitations, and conditions of using complex and expert assessment methods are also substantiated, as well as essential aspects of the assessment model when choosing a criterion. The article highlights the need to collect high-quality information, apply mathematical and statistical models, and choose the right assessment parameters to improve the effectiveness of the rating system. The rating system is recognized as an important tool in improving the reliability and stability of banks through an objective assessment of their financial condition.*

Keywords: *commercial banks, rating system, banking supervision, CAMELS system, financial stability, expert assessment, comprehensive analysis, assessment of banking activity, digital and alphabetical rating, evaluation criteria.*

Kirish.

Bugungi globallashuv jarayonida moliyaviy tizimlarning barqaror faoliyat yuritishi milliy iqtisodiyotlarning rivojlanishida muhim omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari iqtisodiyotda pul-kredit munosabatlarini tartibga soluvchi va real sektorni moliyalashtiruvchi asosiy institutlar sifatida alohida o'rin tutadi. Ularning faoliyat samaradorligi va moliyaviy barqarorligi esa bevosita bank tizimiga bo'lgan ishonchni ta'minlab beradi. Shu nuqtai nazardan, tijorat banklari faoliyatini baholashning aniq, ishonchli va tizimli yondashuvlarga asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda. Ushbu jarayonda reyting tizimi muhim vosita sifatida ko'riladi. Reyting tizimi orqali banklarning moliyaviy holati, risklarni boshqarish qobiliyati, foydalilik darajasi kabi mezonlar asosida tahlil qilinadi. Mazkur maqolada tijorat banklari barqarorligini mustahkamlashda reyting tizimi asosida baholashning nazariy va amaliy jihatlari, xalqaro tajribalar va baholash uslublari tahlil qilinib, ularning takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Adabiyot sharhi.

James R. Barth, Gerard Caprio Jr. va Ross Levine (2001) "Bank regulation and supervision: What works best?" Ushbu tadqiqotchilar bank tizimining barqarorligini ta'minlashda reyting tizimi bilan birgalikda mustahkam nazorat va boshqaruv institutlarining mavjudligini ta'kidlaydi. Ular reyting tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun qonunchilik bazasi va institutlar mustahkam bo'lishi zarurligini asoslab berishadi. Ularning modeli xalqaro solishtirma tahlilga asoslangan bo'lib, 107 mamlakat bank tizimi tahlil qilingan (Климович, 2005).

Хасанов (2016) "Banklar faoliyatining reyting baholash tizimini takomillashtirish yo'llari. "Mazkur o'zbek olimi tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini reyting ko'rsatkichlari orqali tahlil qilishni taklif etadi. Uning tadqiqotida CAMELS tizimining O'zbekiston bank tizimiga moslashtirilgan shakli tavsiya etilgan bo'lib, muallif indikatorlar tanlovi va ularning og'irlik koeffitsiyentlari orqali kompleks baholash metodologiyasini ishlab chiqqan (Корнилов, 2005).

Altman, Edward (1968) "Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy" Altman reyting tizimlarida keng qo'llaniladigan Z-score modelining muallifidir. Ushbu model tijorat banklari moliyaviy holatini tahlil qilishda keng tatbiq qilinadi. Uning tahlilida rentabellik, aktivlar aylanishi va likvidlik kabi ko'rsatkichlar asosida banklar faoliyatining barqarorligi bashorat qilinadi. Bu yondashuv ekspert baholashga nisbatan miqdoriy ishonchlilikni ta'minlaydi (Коробова, 2007).

Muminov B. (2019) "Tijorat banklari moliyaviy faoliyatini baholashda reyting tizimlarining roli." Mo'minov o'z ishida O'zbekiston bank tizimidagi reyting baholashning amaliy muammolarini, xususan subyektiv yondashuv, axborot yetishmovchiligi va texnologik cheklovlarni tahlil qiladi. U reyting tizimlarining avtomatlashtirilgan va texnologik asosda faoliyat yuritishini tavsiya etadi hamda blokcheyn va sun'iy intellekt yondashuvlarining joriy etilishi zarurligini asoslaydi (Короткова, 2005).

Moody's Investors Service (2020) "Banking System Outlook: Global Trends and Credit Risks" Moody's xalqaro reyting agentligi o'z hisobotlarida bank sektorining barqarorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar – aktiv sifati, likvidlik, kapital yetarliligi va reguliyator siyosatini tahlil qiladi. Hisobotda reyting ko'rsatkichlarining bank kredit resurslariga kirish imkoniyatlariga ta'siri tahlil qilingan. Bu yondashuv banklar faoliyatini xalqaro miqyosda qiyosiy baholash imkonini beradi (Лаврушин, 2009).

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy abstraksiyalash, gruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli tijorat banklarining likvidlik ko'rsatkichlarini mustahkamlash mexanizmini takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirib o'tildi. Shuningdek, qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan mamlakatlarda likvidlikni ta'minlash asosida banklar faoliyati samaradorligini oshirish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bank nazoratining mohiyati davlatning bank mijozlari va bank manfaatlarini himoya qilishi, bankning me'yorini va xavf-xatarni kafolatlash bo'lib, bu davlatning iqtisodiy o'sishini ta'minlash omili bo'lib hisoblanadi. Bank nazoratining infratuzilmasi jahon amaliyotida bir xil umumiy tomonlarga ega:

- qonunchilik - davlat parlamenti tomonidan qabul qilingan huquq;
- me'yorlar tizimi - bank faoliyatini boshqarish jarayonidagi qoidalar, yo'riqnomalar;
- siyosiy qarashlar - bank nazoratidagi siyosiy tushunchalar, ham boshqarish qoidalari.

Bankning muassasalar tomonidan nazorat etishga jahon amaliyoti turlicha yondashadi. Faqat, Markaziy bank tomonidan bank nazoratini olib boruvchi davlatlar sirasiga quyidagi davlatlar Avstraliya, Buyuk Britaniya, Islandiya, Irlandiya, Italiya, Portugaliyani kiritish mumkin.

Nazoratni, Markaziy bank bilan birgalikda boshqa muassasalar bilan bank nazoratini olib boruvchi boshqaruvchi davlatlar sirasiga Yaponiya markaziy banki, Moliya vazirligi, Amerika Qo'shma Shtatlari Federal rezervlar tizimi va moliya vazirligi hamda depozitlarda so'g'urta kompaniyasi bilan birgalikda, Shvetsiya markaziy banki, banklarning federal komissiyasi bilan birga, Frantsiyada Frantsiya banki Banklar komissiyasi bilan birgalikda, Germaniyada Bundesbank Federal kredit xizmat nazorati bilan birgalikda. Markaziy bank bank nazoratini olib bormaydigan davlatlar sirasiga Kanada, Daniya, Lyuksemburg, Shvetsiya, Avstriya, Finlyandiya, Norvegiyani kiritish mumkin.

Tijorat banklari qaysi muassasalar tomonidan nazorat qilinishidan qat'iy nazar ularning asosini davlat tashkil qilib har bir davlatning o'z siyosiy qarashidan kelib chiqib, o'z mavqeini belgilaydi. Ularning milliy barqarorligini saqlash maqsadiga xizmat qiladi. Nazorat har bir

davlatning o'z ijtimoiy-siyosiy bozor yo'nalishlariga qarab tahlil etiladi. Bank amaliyotida tijorat banklar faoliyatini baholashda ikki yondashish bor: bank faoliyati ko'rsatkichlarini ikkinchi sinf, birinchi sinf toifasidagi banklarga nisbatan tahlil etish asosida; nazorat tashkilotlari tomonidan belgilangan reyting ko'rsatkichlari asosida. Agar bu mazmunni tahlil etsak dunyoda ko'p davlatlarda bu ikki yondashuv bir-birini to'ldiruvchi hamdir. AQShda, Yaponiyada nazorat tashkilotlari tijorat banklarning reytingini belgilash bilan birga ularni 1-sinf toifasidagi banklarga solishtiradi. Albatta, bu ikki davlat ham tijorat banklarini CAMELS reyting tizimi asosida nazorat qiladi. Ularning amaliyotida oldin tijorat banklar reytingini belgilab, keyin ularning eng yirik o'rta va kichik banklarga ajratib, ular o'rtasida nisbatlarni ham to'liq tahlil etadi. Demak tijorat banklarning faoliyatini baholashda bu ikki yondashuv bir-birini to'ldirar ekan, baholardan kutilgan yakuniy natija reyting hisoblanadi. Reytingni ifodalashda ikki xil usul qo'llaniladi: raqam ko'rinishdagi usul; alifbo ketma-ketligida belgilanuvchi usul.

Banklarni faoliyatini tekshirib ularga ball belgilanib, shu ballarni yig'indisini umumiy reyting bahosi deb yuritiladi. Alifbo ketma-ketligida belgilanuvchi usulda ko'p davlatlarning ichki reyting markazlarida foydalaniladi. Misol uchun Rossiya federatsiyasi «Kommersant» reyting ekspertlari banklarni uch guruhga bo'lgan - A, V, S. Bu reytingdagi banklar barqarorligi eng yuqori bo'lgan banklar hisoblangan. AS - barqaror banklar reyting ramzi sifatida ifodalangan. Shu bilan birga «Reyting» axborot markazi banklarning reyting ko'rsatkichlarini qo'yidagicha ifodalagan: A - eng yuqori barqarorlik kategoriyasi. V — o'rta barqarorlik kategoriyasi. S — noaniq barqarorlik kategoriyasi. Bundan kelib chiqib, A3 - eng yuqori barqarorlik kategoriyasi; A2 - ancha baland barqaror kategoriyasi; A1 — baland barqarorlik kategoriyasi; VZ - yetarli baland barqarorlik kategoriyasi; V2 - o'rta; V1 - yetarli bo'lmagan baland barqarorlik kategoriya; SZ - qisman noaniq; S2 - noaniq; S1 — juda noaniq. Bunday reytingni aniqlashda tijorat banklarining manbai bo'lib bank aktivlari, aktivlarning berilgan kreditdagi qismi, ustav fondi va daromad ko'rsatkichlari hisoblanadi. Albatta, xalqaro miqyosda ham reytingni aniqlash uchun bank kapitali, aktivlar, daromad ko'rsatkichlari asos qilib olinadi.

Kompleks iqtisodiy tahlil tizimida bir necha mezonlarni hisobga oluvchi kompleks iqtisodiy ko'rsatkichlar sifatida reyting asosida iqtisodiy faoliyatni baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Reytingni qo'llash tez va samarali tanlash, mos boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini beradi, buning oqibatida jahon amaliyotida korxona, bank, investitsiya jamg'armalari, sug'urta kompaniyalari reytinglari amaliyotda keng tarqalgan. Reytingning dastlabki komponentini ishlab chiqishda zarur mezonlarni tanlash tahlil maqsadlari asosida amalga oshirilishi lozim, ulardan belgilangan qiyoslash mezonlari asosida bosqichlarga ajratishda foydalanish mumkin (ishonchlilik, ishbilarmonlik faolligi, matbuotdagi obro'si, foydalilik, moliyaviy holati). Zarur mezonlarni tanlashning navbatdagi bosqichida biror-bir umumlashtirilgan mezonlar tahlilida yuzaga keluvchi farqni o'xshash baholovchi axborotli ko'rsatkichlarni tanlash zarur. Navbatdagi bosqichda shkalalarni ishlab chiqish zarur, ular asosida biror-bir mezon baholanadi. Bunda shkala (ustun) moslik xususiyatiga ega bo'lishi, ya'ni o'lchash shkalasiga nisbatan fikrlarning invariantligini ta'minlashi lozim³. Keyingi o'rinlarda tanlash tamoyilini ishlab chiqish zarur, uning asosida yakuniy reyting shakllantiriladi. Uslubiy ko'rinishda foydalanilgan hisob-kitob texnologiyasiga bog'liq holda kompleks reyting baholarini tuzishga ikkita asosiy yondashuvni ajratish lozim: buxgalteriyaga oid (balans) yondashuv; ekspert yondashuv. Buxgalteriyaga oid baholash faqat miqdoriy ko'rsatkichlar tahlilidan foydalanib, bankning rasmiy moliyaviy hisoboti asosida amalga oshiriladi. Bu kabi baholashni tuzishda ommaviy moliyaviy hisobot asosida hisoblab chiqilgan miqdoriy shkalalar, ko'rsatkichlar hamda ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta ishlashning oraliq-statistik usullaridan keng foydalaniladi; kredit tashkilot faoliyat yuritishining tuzilgan matematik va matematik-statistik modellari asosida baholash ham mumkin.⁴ Ekspert baholash mutaxassislar tomonidan ularning har qanday foydalanilgan axborot bo'yicha tajriba va malakalari asosida hamda axborotlarni miqdoriy va sifatli tahlili asosida beriladi. Tabiiyki, reytinglarni tuzishga ekspert yondashuvdan foydalanish ma'lum sharoitlarda barcha sezilarsiz

farqlarni aniqlash va nomiqdoriy axborotlarni hisobga olish imkonini beradi, bu esa pirovardida yuzaga kelgan vaziyatga o'xshash bahoni yaratishga ko'maklashadi, biroq mazkur usuldan foydalanish axborotlar yetishmasligi, ekspertlarning omilkorligi va kelisholmaslik muammosi, mutaxassisning bahosiga sub'ektiv omillarning ta'siri, ekspertlar guruhlarini ishlarini tashkil etish murakkabligi, ba'zan o'xshash baholash tizimlarini kamchiliklari, ekspertiza o'tkazish texnologiyasi hamda axborotni qayta ishlash usullari takomillashmaganligi, shuningdek bu kabi tadqiqotlar nisbatan qimmatligi kabi qator qiyinchiliklar bilan bog'liq. Bizning fikrimizcha, baholash tizimini yaratishda ikkala usuldan foydalanish maqsadga muvofiq. Zero banklarni tabaqalarga ajratish amaliyotida ikki yondashuvni birgalikda olib borishga oid yetarlicha misollar mavjud, bunda baholash tizimining dastlabki yaratilishi ekspertlar tomonidan namunaviy guruhlarini tahlil qilish asosida olib borilgan hamda shu tarzda olingan tizim qat'iy miqdoriy ko'rsatkichlardan foydalanadi, uzoq vaqt davomida bir marta faqat yakuniy formulani sozlagan ekspertlarning ishtirokisiz yakuniy bosqichlarga ajratish amalga oshirildi.

Reytinglar tuzishning ikki asosiy usuli mavjud:

- kompleks qiyoslash ko'rsatkichi bo'yicha barcha ob'ektlarni bosqichlarga ajratuvchi yagona reytingni tuzish (xususiy mezon, umumiy ball yoki yashirin ko'rsatkichlarga);
- bir yoki bir necha belgilar bo'yicha bosqichlarga foydalanilishi mumkin bo'lgan toifalarni tuzish (sinflar, guruhlar, segmentlar).

Birinci yondashuv, baholash tizimi bir necha miqdoriy ko'rsatkichlar asosida shakllangan miqdoriy tahlilda ustuvor ravishda foydalaniladi, buning natijasida berilgan o'lcham vositasida ob'ektlar bir xilda reyting soni ortib borishi tartibida bosqichlarga ajratiladi. Ushbu usuldan foydalanishda qiyoslanayotgan ob'ektlarning eng muhimini ko'rsatish mumkin. O'lchov sifatida xususiy ko'rsatkichlardan biri, yoki bir nechta xususiy mezonlardan tashkil topgan funktsiya sifatida shakllanuvchi birlashtirilgan kompleks ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ikkinchi yondashuv boshqa tamoyilga asoslangan. Dastlab biror-bir sabab bilan tranzitivlik xususiyatini saqlab qolgan holda barchasiga nisbatan har bir ob'ektga nisbatan afzalliklarni aniqlashning imkoni yo'qligi ko'zda tutiladi. Bunda tadqiq etilgan yig'indini guruhlariga ekspert guruhi ishlari asosida hamda tasniflash tartibotining miqdoriy ma'lumotlariga tatbiq etish vositasi bilan taqsimlash amalga oshiriladi. Bu holatda ushbu yondashuv nisbatan qayishqoq, chunki turli ob'ektlarni tahlil qilish imkonini beradi. Shunday qilib, hajmiga ko'ra sezilarli farqlanuvchi banklar tahlilini ushbu usulga mos ravishda olib borish maqsadga muvofiq, chunki yirik va kichik banklar ko'rsatkichlarining tuzilishi bir guruhdan boshqasiga o'tishda kuchli o'zgartiriladi. Yakuniy baholash mezonini aniqlash va asosiy qiyoslash ko'rsatkichlarini tanlash muhim uslubiy masala hisoblanadi. Bunda nafaqat reytingni shakllantirish bo'yicha oraliq ish, bevosita bosqichlarga ajratishning yakuniy natijasi ham ushbu masalaga bog'liqligi shubhasiz.

Xulosa va takliflar.

Holbuki, banklarni tasniflashning belgisi bank faoliyatining alohida tomonlarini singari (foydalilik, likvidlik, to'lovga layoqatlilik) butun bank faoliyatini ham aks ettirishi mumkin. Bunda, mohiyatiga ko'ra, shakllantirilgan baholash modelining parametrlarini tanlash natijalariga uning yakuniy natijasi bog'liq bo'lib, yanada axborotli ko'rsatkichlarni to'g'ri tanlanishi kelgusida tuzatish va o'zgartirishlar kiritilmaydigan tarzda aniq ishlaydigan modelni yaratish imkonini beradi. Kompleks reyting baholashni tuzish uchun baholash tizimiga bank faoliyatining barcha tomonlarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar kiritilishi lozim. Faqat mazkur holatdagina yakuniy reytingni haqiqatda kompleks baholash sifatida ko'rib chiqish mumkin.

Ekspert baholash hozirgi kunda amaliyotda kredit muassasalari faoliyat yuritishiga nisbatan sifatli axborotni olish va tahlil qilishning nisbatan keng tarqalgan usuli hisoblanadi. Biroq mazkur usulning muvaffaqiyatli tatbiq etilishi ko'p tomonlama ko'plab omillarga, shu jumladan ekspert axborotlarini tahlil va qayta ishlanishini amalga oshiriluvchi matematik

apparatning takomillashuviga bog'liq. Shunga muvofiq, reytingni shakllantirishning dastlabki bosqichida foydalanilayotgan texnologiyaga mos ravishda zarur axborotni olish imkonini beruvchi shkala kiritiluvchi baholash tizimini ishlab chiqish zarur. Agar tahlilda mezonlarning afzalliklarini ustuvor ravishda sifatli baholash usuli o'zini oqlamasa, yoki tahlilning maqsadi yig'indini biror bir belgilari bo'yicha sinflarga taqsimlash hisoblansa, u holda juft va ko'plik qiyoslash, tabaqalarga ajratish yoki tasniflash usulidan foydalanish maqsadga muvofiq. Agar tahlil qilinayotgan axborotning xarakteri mezonlarning qiyosiy afzalligini miqdoriy baholash maqsadga muvofiq bo'lsa, ob'ektlar baholanuvchi shkalani aniqlash zarur.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Климович В.П. (2005) Основы банковского аудита: учебник.-М.:ФОРУМ: Инфра-М, С.-4

Корнилов Д.Т. (2005) Устойчивость банковской системы в условиях рыночной конкуренции. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ярославл. -22 стр.

Коробова Г.Г. (2007) Банковское дело. Учебник. –М.: Экономист, С.78.

Короткова Е.А. (2005) Устойчивость банковской системы России и ее обеспечение. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Волгоград. -24 стр.

Лаврушин О.И. (2009) Банковский менеджмент. Учебник. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, – С. 44, 95.